



**Qudratova Manija Shohmansur qizi**  
*Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti o'zbek tili  
va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich 406-guruh talabasi*

## ABDULLA ORIPOV IJODIDA MUQADDAS AYOL TIMSOLI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov she'riyatida onani ulug'lash va madh etish, shuningdek, ayol timsolining betakror ko'rinishlari adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan mulohaza qilingan. Sho'ir she'riyatidagi ona va ayol obrazlariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Ona, Vatan, vafo, sadoqat, ayol, o'zbek ayoli, betakror, she'riyat.

Abdulla Oripov she'riyatida ona obrazining ma'no ko'lami keng. Bu ko'lam, eng avvalo, Vatan bilan mushtarak bo'lgandagina badiiy butunlik hosil qila oladi. Zero, "Tabiat haqida yozadimi yoki samoviy jismlar xususida fikr yuritadimi, inson kechinmalarini tasvirlaydimi yoki turfa tuyg'ularni qalamga oladimi, Abdulla Oripovning ko'z o'ngida har doim Vatan timsoli turadi"<sup>1</sup>. Shu ma'noda Ona va Vatan obrazlarining poetik uyg'unligi ijodkor A.Oripov she'riyati misolida badiiy tahlil qilinib yoritiladi.

Ona! Naqadar buyuk zot. Barcha insonlarning eng a'losi. Tun-u kun bizni o'ylab, tunlarni bedor o'tkazgan mehribonim. Farzandim deya yashayotgan qalbi bahorim. Barcha farishtalar jam bo'lib ham onamning o'rnini bosolmaydi, chunki onajonim bu mening yagona farishtam.

Osmonda yulduzlar son-sanoqsiz, yer yuzida odamlar juda bisyor. Lekin ularning ichida ona degan ulug' bir zot, eng yaqin insonimiz, eng betakror, eng beg'ubor, eng mehribon, eng yagona bu inson oldida biz doim ta'zimdamiz. Insonlar bir-birlarini juda ko'p yaxshi ko'rishi mumkin, qadrlashi mumkin, dunyolarcha sevishi mumkin, lekin onamizdek sevolmaydi, ardoqlamaydi. Ularning ardoqlashi onamning yaxshi ko'rganidek emas, onamning bir og'iz shirin so'ziga teng kelolmas.

Yaxshi yashash baxtli bo'lish bu juda oson ish, har bitta ota-onasi bor farzand uchun, shunchaki ota-onani rozi qilish kerak bu baxtli bo'lishning oddiy bir formulasi. Muhabbatdan so'z ochsangiz onadan boshlang, chunki onasini yaxshi ko'rmagan insonlarning muhabbatini yolg'on bo'ladi. Onajon siz mening aytib bo'lmas, ta'riflab bo'lmas muhabbatimsiz. Sizning mehringiz poyoni yo'q ummonga o'xshaydi. Onajon!, go'zalim sizni nega yaxshi ko'raman, chunki siz go'zallar ichida eng xushro'yimsiz. Insonlarning barchasi, hammasi oddiy bir suv siz qalbim malhamisiz, zamzamimsiz onajon.

Onasi bor har bir insonning baxtini tasavvur qilolmaydigan darajada, uning mehrini tasvirlab berolmaydigan darajada ojizmiz. Bu mehrni sezal olgan, bila olgan odamgina tasvirlab beroladi. Dunyodagi eng baxtli inson kim deb so'rashsa onasi bor inson va ona mehrini bera oladigan inson deya javob bergen bo'lardim. To'g'ri, bu hayotda baxtli insonlar ham baxtga erishmagan insonlar ham juda bisyor. Ona barcha buyuk zotlar ichida eng beg'ubori, mehriboni, sofdili, ko'ngli bahorim, qalbi pokdilim, a'lolar ichida eng a'loyim, betakrorim, yagonam, jannatim, xokisorim, oddiyligim, qalbi oppog'imsiz onajonim. Ona mehrini hech narsa bilan qiyoslab ham almashtirib ham bo'lmaydi. Butun dunyoning insonlari hamda butun dunyoning boyliklari jam bo'lib, bittagina onayi zorimning o'rnini ham mehrini ham berolmaydi. Insonlarning hayoti va tashvishlari bir chetda-yu onaning farzandi haqida o'ylovulari, farzandlari uchun qayg'urishi, tunlarni bedor o'tkazib ko'zlar eshikda intizor o'z farzandini kutishi bu ajib bir baxt desak ham adashmagan bo'lamiz. Onalar farzandlarning tashvishlari hamda ularni qayg'urish bilan kunlarini o'tkazgan eng beg'ubor insonlardir. Hatto ko'zlar termulib ularni kutish ham ona uchun cheksiz baxtdek tuyiladi. Nega bizlar Allohnning bir ojiz bandalari bo'la turib, onalarimizni ular bizni o'ylaganchalik o'ylolmaymiz, ular qayg'urganchalik qayg'ura olmaymiz, ularning bergen mehrlari singari mehr bera

<sup>1</sup> Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМУ, 2015. – Б. 45-46.



olmaymiz, ularning chin va pokiza qalblari singari sababsiz yaxshiliklar qilolmaymiz. Keltirilgan barcha so‘zlar va amallarni faqat onajonlarimiz sababsiz va inkorsiz qilishlari mumkindir.

Dardlardan oqargan qora sochingiz,  
Tosh bo‘lib qotgandir ko‘zda yoshingiz.  
Ne g‘amlar ko‘rmadi aziz boshingiz.  
Ta’zimlar bajodir sizga onalar.

Qalbingiz mehrdan, nurdan yaralgan,  
Jismingiz go‘zallik bilan bezalgan.  
Dunyoda bor narsa sizga atalgan  
Ta’zimlar bajodir sizga onalar.

Siz borsiz bu olam, bu hayot go‘zal,  
Tiriklik boqiyidir, tabiat go‘zal.  
Muhabbat go‘zaldir, sadoqat go‘zal,  
Ta’zimlar bajodir sizga onalar.

G‘am chekmang, dardlardan siz yiroq bo‘ling,  
Muattar gul bo‘ling, gulzoq, bog‘ bo‘ling.  
Hamisha bor bo‘ling, doim sog‘ yuring,  
Ta’zimlar bajodir sizga onalar.

Darddan qora sochlari oqargan, aziz boshlari g‘amlardan arimagan, yuzlarini ajinlar bosgan, farzandim deya, bolam deya o‘z jonini hech ham ayamagan, qo‘llari qadoq, dard ko‘rsada doim yuzlari quvnoq, har doim kulib tura oladigan insonlar – onajonlarimiz hamisha baxtimizga sog‘ bo‘lishsin. Onalar borki, bu olam, bu hayot go‘zal, ular bilan bu dunyo munavvar, hatto onalar bilan muhabbat ham go‘zal sanaladi.

Onam oddiy emas, u menin qahramonim. Har qadamimda u meni qo‘llab-quvvatlaydi va dalda beradi. Kecha-yu kunduz qanday sharoitda bo‘lishidan qat‘iy nazar doim yonimda. Bundan tashqari, uning har bir ishi, qat‘iyatliligi, sadoqati, fidoyiligi, xulq-atvori men uchun ilhom baxsh etadi. Men onamni yaxshi ko‘raman. Biz kattalarni hurmat qilishimiz kerak. Lekin men onamni umuman boshqacha hurmat qilaman, onam men hali gapira, yura olmagan paytalarimdayoq menga g‘amxo‘rlik qilgan. Hech qanday so‘zlarsiz meni nima xohlayotganimni tushuna oladigan yagona inson menin onamdir. Xuddi shunday, hayotimdagagi ilk va katta qadamim onam tufayli bosilgan. Chunki onam menga kichik qadamlar tashlashni o‘rgatmaganida men bu katta qadamni bosa olmas edim. Onam men uchun rostgo‘ylik, sevgi va samimiylit timsolidir. Onamning qo‘llari hamisha duoda. Ona bizga hamma narsani berishga tayyor, lekin buning evaziga hech narsa talab qilmaydi. Onamning oilamizda har birimizga g‘amxo‘rligi meni kelajakda ham shunday qilishga undaydi. Onam jismonan kuchli bo‘lmasa-da, hayoti va oilasi uchun har qanday to‘sqliarni yengib o‘tishga qodir. U meni qiyin paytlarda ham hech qachon taslim bo‘lmaslikka chaqiradi. Eng muhimi, onam meni har tomonlama baxtli bo‘lishga va ilm olishimga undaydi. Har bir ona o‘z farzandlari uchun alohida shaxs. U ajoyib o‘qituvchi, sevimli do‘st, qat‘iyatli ustoz. Agar bizni onamizdan ko‘ra ko‘proq sevadigan odam bo‘lsa, bu faqat Allohdir. Nafaqat menin onam, balki o‘z oilasi uchun jonini fido qilayotgan har bir ona maqtov va qarsaklarga sazovor.

Ayol! Bu so‘z zamirida olam-olam ma‘no mujassam. Uni qanchalar ta’rif qilsang, shunchalar qalbing yayraydi. Ne-ne shoirlar madhini kuylab she‘rlar yozgan. Buyuk allomalar qalbidagi eng javohir so‘zlar bilan uning ta’rifi keltiriladi. Bu dunyo go‘zalligini, hayot falsafasini va ma‘no ma‘rifatini avvalambor ayol siyosining uning fidoi qalb, vafo sadoqatida ko‘ramiz, his etamiz. Ayol! Naqadar buyuk zot. Faqat uning farzand uchun kechalarni bedor o‘tkazgan, farzand kamoli uchun yelib yugurgan, oilasining tinch yashashi uchun har ishga tayyor, atrofdagilarga beminnat mehr bergen betakror zot.



Temur kabi sohibi zamonlar qilichi yetmagan yerkarni qalam bilan olishga Alisherni qodir qilgan qudrat she'riyatdir. She'riyatni "Onajonim" deb ulug'lagan va chindan ham she'riyatga fidoiy farzand bolgan Abdulla Oripovning she'ri kirib kelmagan birorta xonodon O'zbekistonda topilmasa kerak, deb ta'riflaydi Maqsuda Ergasheva.

Dunyoda onadan himmatli, onadan rahmdil, kechirimli zotni topish mushkul. Ona farzandi yaxshi yoki yomon bo'lsa ham, to'g'ri yoki o'g'ri bo'lsa ham, chiroyli-yu xunuk bo'lsa ham, sog' yoxud nosog'lom bo'lsa ham, barbir bolam, deydi. Bolam deydi, kuyib-yonadi. "Ona o'g'lin ardoqlar, u bo'lsa ham o'gri", - misralarini keltiradi bir o'rinda shoir. Farzandlar onaga, oq sutiga xiyonat qilishi mumkin, ammo ona o'z farzandiga xiyonat qilmaydi. Ularni ko'z qorachig'idek asraydi. Farzandlar dunyoni ona allasi, so'zi orqali taniydi. Ona uchun esa dunyoning o'zi farzand. Shu ma'noda ham, inson bolasi borki, adashadi, yo'ldan toyadi, xato qiladi. Ba'zan vataniqa xiyonat qilgan kishilar haqida undan-bundan eshitib qolamiz. Vatan-bu ona. Demak, har bir vatanga xiyonat onaga xiyonat, vatandan kechish onadan kechish bilan barobardir. "Bu o'rinda Vatanni ona deydigan bo'lsak, farzand ona-Vatan uchun qurbon bo'laman, deb tayyor turishi uchun uni tarbiyalash va tashviq qilish kerak. Hamma ham Vatan mening onam ekanda, deb uning himoyasi uchun otilib chiqib ketavermaydi. Lekin ona har qanday sharoitda, bolasi noqobil bo'lsa ham, uni meniki deb turaveradi"<sup>2</sup>- deydi shoir suhbatlarining birida. Darhaqiqat, ona farzandini har qanday holatda ham bolam deganidek, Vatan uchun ham shu zaminda tug'ilgan, unib-o'sgan har qanday bola farzand sanaladi, shu tuproq iforini hidlagan har bir inson uchun u vatandir. Shoir she'rlarida hayotning bunday qiyofasi teran ifodalar bilan bayon etiladi, qat'iy xulosa qilinadi.

Yoshing oltidami yoki oltmishta,

Mayli, qay ish bilan mashg'ulsan, bandsan.

Qaysi kenglikdasan, qay tuyulishda,

Baribir Vatanga farzandsan.<sup>3</sup>

Ha, shoir nazdida Vatan – bu bag'ri osmonlardan-da keng, qalbi qaynoq, quchog'i issiq quvonch va iztiroblar makonidir. Vatan – bu tug'ilgan va hali tug'ilajak surriyodlarning qulog'iga aytildigan azondir. U tildir, u iymon, vijdon, u o'zligimizdir. Bularning barchasi bizga ona suti va mehri, tarbiyasi bilan butun vujudimizga singadi. Har birimizning o'z taqdirimiz Vatan va ona bilan tutashgan. Biz vatanni tanlamaymiz, chunki Vatan bizni allaqachon tanlab bo'lган. Vatan muqaddas dargoh hisoblanadi. Xuddi shuningdek, biz onani ham tanlamaymiz. Bu shunday ilohiy paradokski, ona va Vatan mavzularining mohiyati, badiyili va umrboqiyligining mushtarakligi ham shundan. Shoirning hukmicha, har bir farzand bolaligidan o'z xalqining vakili ekanligi va shuning uchun dunyoga kelganligini his qilishi hamda shu vazifani zimmasiga olishga o'zini tayyorlashi lozim. Vatanga fidoyi farzand bo'lish onaga fidoyi farzand bo'lish bilan barobardir. Zero, "Dunyoga xizmat ko'rsatgan va ko'rsatmagan, yaxshi va yomon odamlar bor. Lekin dunyoga xizmat ko'rsatmagan onalar yo'q va hamisha ular farzandlari uchun yaxshi, muqaddasdir"<sup>4</sup>. Onalar hamisha farzandi uchun jon kuydiradi, hatto olayotgan nafasi ham o'z farzandlari jigargo'shalari uchundir. Onaning muhabbati haqiqiy va abadiydir. Har qanday aytilgan so'z va dilog'ritishlardan keyin ham onaning muhabbati tugamaydi. Onaning muhabbati yuragi urguncha davom etadi. Ona haqiqiy dovyurak va jasur ayol singaridir. Ana shu fidoyilik Vatanni idrok qilish, his qilish tuyg'ulari bilan hamohang. Vatan ham ona kabi eng muqaddas xilqat. Unga bo'lgan muhabbat esa eng bokira tuyg'u sanaladi. Shoir uchun Vatan boyliklarga, zarlarga kon makon emas, eng avvalo, onaga bo'lgan cheksiz muhabbati, buyuk va taxir o'tmishni yelkasiga ortib yuqoriga ildamlayotgan onalari bor millat-buyuk sevgiga sazovor ma'vo. Shoir bir she'rida: "Yurtim, boyliklaring-chun sevgan farzand bo'lsam, kechirma aslo", - deya murojaat qiladi va ta'kidlaydi. Shoir she'riyatida ona tushunchasi Vatan tushunchasining o'zagini tashkil qiladi. Ayni shuning uchun ham shoir ijodida mehnatkash va bag'ri keng, "mehmon joy so'rasa" unga jonini ham beradigan, "eng so'nggi nonini ham o'zi yemay o'g'liga tutgan" ona obrazli poetik umumlashma hosil

<sup>2</sup>Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000. -Б. 243

<sup>3</sup> Орипов А. Адолат кўзгуси. Бешинч жилд. -Т.: Адолат, 2005. -Б. 54.

<sup>4</sup> Hamzatov R. Ayollar ko'p, Ona-yagona. -Т.: "DAVR PRESS" NMU, 2016. –Б. 148.



qilib, ona obrazi xalq obrazi darajasiga ko'tariladi va yuksala boradi. Shuning uchun ham shoirning Vatanga bo'lgan muhabbatining debochasi onaga muhabbatdir.

Har bir odam safarda yurganida, musofirlikda, eng go'zal maskanlarni, jannatiy o'lkalarni tomosha qilib turib, o'z ona yurtini sog'inishi, qumsashi tabiiy, albatta. Astrobodda yashagan Alisher Navoiyning Hirotni qumsab, Hindistonda esa Boburshohning Andijonni sog'inib yozgan ruboilyarida, Furqatning nolakor g'azallarida musofirlikda tanilgan Vatan ruhi-barchasi ona Vatanga cheksiz mehr-muhabbatning hosilasidir. Shoир sog'inchida ham Vatanda mavjud bo'lgan va u uchun qadron jamiki borliq mujassam. Avvalo, Vatan sog'inchi ona bilan bog'liq.

Bilamanki, onalar unda,

Kuzatarlar meni shod, xurram.

Onajonim, ne qilay shunda,

Gar sog'insam, ko'z yoshingni man<sup>5</sup>.

Qaysi yurtga bormang, u yerda ham ona baribir ona bo'lib qolaveradi. Ona also o'zgarmaydi. U hech qachon soxta emas. Hamisha farzandi uchun mukammallikga intilgan zot. Ona uchun farzandning begonasi bo'lmaydi. Barchasi aziz va mukarram. Barchasi ona uchun bir xil. Siz bilan qanchalik samimi y munosabatda bo'lsa ham, qalbingiz boshqa bir tanish diydor sari oshiqaveradi. Xuddi shu narsani shoир Vatan deb ataydi. Vatanga, ona qoshiga esa odam hamisha sog'inch bilan qaytib keladi.

O'zbek xalqi azaldan shoirtabiat xalq, uning tuprog'idan tortib yaprog'igacha shoirdir. Shuning uchun ham u farzandlariga she'riyat kabi teran, she'riyat kabi sermano va jo'shqin, bir-biriga tutash ismlar qo'yadi. U to'y qilsa, shodliklarini she'rqa solib "Yor-Yor" aytadi. Hattoki, azada ham hasratlarini she'rqa aylantirib bo'zlaydi...

Besh asrkim nazmiy saroyni

Titratadi zanjirband bir sher.

Temur tig'i yetmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher...

...deb yozgan edi, o'zbek xalqining sevimli farzandi, shoир Abdulla Oripov. Abdulla Oripov she'riyatining qudrati yuksak darajadagi badiiyligidadir. Lekin uning she'rlarida sun'iy badiiylik, zormazoraki o'xshatishlar, mantiqqa zid bo'lgan jonlantrishlar orqali badiiyat yaratilmaydi. Uning har bir iborasi, har bir tashbehi ayni haqiqatdir. Abdulla Oripov dono xalqimiz yaratgan maqol va matallardan, iboralardan juda oqilona va mahorat bilan foydalanadiki, natijada shoир tilga olgan maqollaridan qayta boshdan she'riy umrini boshlaydi. Abdulla Oripovning har bir she'ri, har bir misrasining o'z ohangi bor, uni sira boshqa ohangda aytib bo'lmaydi. Shoир she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, u behad o'ziga xos shoир. U sevscha chin dildan yonib, o'rtanib sevadi, agar nafratlansa, sevgisi darajasidagi kuchli dard, armon bilan nafratlanadi. U har bir mavzuda o'rtanib, qalamni taroshlab, avaylab, yonib ishga soladi, ayniqsa, bu mavzu Vatan va ona mavzusi bo'lsa...

Xulosa qilib aytganda, shoirning butun she'riyati singari ayol lirikasi ham o'ziga xosligi, teranligi, tuyg'ularning tabiiyligi va sofligi, hayotiyligi, real ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shoир ona va Vatan tushunchalarini hamisha chambarchas bog'liqlikda olib boradi. Uning she'rlarida vafo va sadoqat, haqiqiy ayol timsoli yaqqol namoyon bo'ladi. Ba'zi she'rlarida onalarning armonlari, sog'inch va ichtiroblari, hijron voqeliklari madh etilgan. Abdulla Oripovning she'riyatida umrboqiy mavzular va go'zal tuyg'ular qalamga olingan ekan, demak u har bir o'quvchining ma'naviy olamida doimo barhayot yashaydi.

#### Foydalanimgan adabiyotlar:

- 1.Sharafiddinov O. She'riyat — qalb yolqini. „Hayot bilan hamnafas“ kitobida. Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984.
- 2.Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O'qituvchi“, 1999.
- 3.Qo'shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: „Ma'naviyat“, 2000

<sup>5</sup> Oripov A. Shoirning tug'ilishi. -T.: Adabiyot, 2021. -B. 40.



- 4.Shavkat Mirziyoyev: “Erkin Vohidov, Abdulla Oripovning o‘rni bilinayotganini his qildim” nutqi-2018
- 5.Abdulla Oripov. Mitti yulduz.-Toshkent 1965
6. “Oltin-nashr” nashriyoti.2021
7. O‘zbekiston adabiyot va san’at gazetasi.2021-yil 10-dekabr.
- 8.Abdulla Oripov tanlangan asarlari (2000-2016) 4-jild